



HIKOYADAGI RAMZIYLIK TAHLILI (Shodiqul Hamroning “Suratdagi ayol” hikoyasi misolida)

Tojiyeva Sevinch Sherali qizi

Navoiy davlat universiteti
Adabiyotshunoslik yo‘nalishi
1-bosqich magistri
Sevincht2003@icloud.com

Annotatsiya. Maqolada yozuvchi Shodiqul Hamroning “Suratdagi ayol” hikoyasi tahlil qilingan. Asardagi obraz va voqelikning ramziy ma’no-mohiyati, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Suratdagi ayol, suratlar qutisi, ramziylik, roviy, mimesis, mistik, epitet, retrospeksiya, “men”lik.

Yozuvchining yozayotgan asari adabiyotshunoslikning qaysi janriga mansub ekanligidan qat’iy nazar, o‘quvchining qalbiga yetib borsa, uni o‘ylantirsa, xayoli ko‘plab savollar girdobida qolsa, demak, bu asar ham adabiyotshunoslikda, ham kitobxonlar qalbida uzoq yillar yashay oladi. Ana shunday asarlardan biri mahoratli yozuvchi Shodiqul Hamroning kichik nasriy janrda yozilgan “Suratdagi ayol” hikoyasidir. Ulug‘bek Hamdam o‘zining “Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm” nomli o‘quv qo‘llanmasida Sh.Hamroni “Suratdagi ayol”[1] hikoyasi bilan yangicha yozish mumkinligini isbot qilgan...”[2:201] ijodkor sifatida baholaydi. Darhaqiqat, hikoyada insoniylik, qadr-qimmat va or-nomusning hamma narsadan ustunligi yangicha tasvirlar orqali yoritiladi. O‘tgan asrning so‘nggi choragi nasri haqida fikr bildirar ekan, X.Abdurashid shunday yozadi: “Yangi avlod yozuvchilari voqelikni boshqacha rakursda ko‘rsatish, fikrni asar tagmatniga berkitish, o‘quvchini obrazli tafakkurga chorlash bilan nasrga yangicha ob-havo olib kirishga harakat boshlashdi. Shu davrda yaratilgan Olim Otaxonning “To‘rtinchi qavatdagi sarg‘ish deraza”, Nurilla Otaxonovning “Oq bino oqshomlari”, Shodiqul Hamroning “Suratdagi ayol”, Nodir Normatovning “Bir kuni chumoli bo‘lib” kabi hikoyalari o‘ziga xos tajriba mahsuli o‘laroq, o‘zbek hikoyachiligini yangi bosqichga ko‘tarish uchun tashlangan dadil qadam edi...”[3] Reallikni ramziylik vositasida tasvirlaydigan yozuvchi Shodiqul Hamro 1965 yil 13-oktyabrda Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanida tug‘ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1989). “Suratdagi ayol” (1994), “Karvon qo‘ng‘irog‘i” (1999), “Qora kun” (1996), “Qaqnus qanotidagi umr” (2005) kabi hikoya va qissalar to‘plamlari nashr etilgan.[4]

Shodiqul Hamro asarlaridagi ijtimoiy hayot voqeligi ramzlar orqali ko‘rsatiladi. Buni Shodiqul Hamroning o‘zi “Yoshlik”da e‘lon qilingan “Fikrlashdan to‘xtash – fojia” deya nomlangan suhbat jarayonida ham ta’kidlaydi: “Real voqeani real tasvirlab berishni yozuvchi sifatida xushlamayman. Masalan, “Qora kun” qissasidagi tobutning yo‘qolishini



olaylik. Agar uni ramz sifatida qabul qilmasak, ma'nosi torayib ketadi. "Suratdagi ayol" ham ramziy obraz. Odatda, meni qahramonlarga ism tanlash qiynaydi. E'tibor qilsangiz, "Qora kun"da birorta ham ism uchramaydi. Ism ishlatish men uchun erish tuyulgan. Asarda tobutni kim va nega o'g'irlagani aytilmagan bo'lsa-da, o'sha qishloqdagi odamlarning hayoti, qilayotgan ishlari tasvirlangan". [5]

"Suratdagi ayol" hikoyasi inson ruhiyati, xotira va yolg'izlik muammolarini, or-nomus masalalarini chuqur ochib beruvchi asarlardan biridir. Hikoya tilida mimetik uslub, ya'ni, Aristotelning "Mimesis nazariyasi"da ochib berilgan hayotga taqlid tushunchasi, sodda qilib aytganda, reallikka asoslangan ramziylik mavjud. Hikoya ruhi mistik, ya'ni, sirli, yashirin, g'ayritabiiy voqeliklardan iborat. Muallif tilida pixologik ohang juda kuchli. Masalan, kampirning o'limi, suratdagi qora dog'lar, ayolning nigohi kabi epitetlar orqali psixologik ohang yanada kuchaytirilgan. Har qanday asarda sarlavha juda muhim. Xoh u hikoya bo'lsin, xoh katta bir roman. Sarlavhaning o'ziyoq o'quvchida o'qiladigan asarga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi lozim. Hikoya nomi ham kitobxonni o'ziga jalb qiladi. O'quvchida "Bu qanday surat?", "Suratdagi ayol kim?", "Nega, aynan, ayol kishining surati?" degan savollar paydo bo'ladi. Sarlavhadan so'ng epigraf yozuvchi yozayotgan asarida anglatmoqchi bo'lgan fikrning nishonasi hisoblanadi. Hikoyadagi: "Yuzingda dog' ko'rdim, muborak bo'lsin..." epigrafi o'quvchida savol uyg'otadi. Uyqudagi alahsirashdan olingan ushbu parcha ham to'laligicha ramziy ma'noga ega. Dog' – or-nomusning toptalishi, oyog'osti qilinishi kabi ramziy ma'nolarni tashiydi. Hikoyada qo'yilgan markaziy muammo esa inson xotirasi, o'tmish va bugun o'rtasidagi ichki ziddiyatlardir. Yaratilgan har qanday asarda mavzu va g'oya mavjud. Ammo ularni tushuntirish va tushunish, yetkazish va anglash borasida yozuvchi va o'quvchi mulohazalari, fikrlari turlichadir. Ba'zan yozuvchi yozilgan asar g'oyasini atroflicha tushunish va anglashni kitobxonning o'ziga havola qiladi. Hikoyada o'tgan, unutilgan va yashirin kechinmalar "surat" timsoli orqali hozirgi hayotgan kirishi hamda kecha-yu kunduz inson ruhiyatiga ta'sir qilishi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, inson ichidagi sirlar, kechinmalar, qo'rquv va ong osti tushunchalari hayotga kirib kelishi mumkinligi, "men"lik, nazorat qilish istagi suratdagi ayol timsolida va noma'lumga bo'lgan qiziqishning oqibatlar talaba yigitning qutidagi suratlariga qiziqishi tasvirida yaqqol namoyon bo'ladi. Hikoya syujetiga to'xtalsak, syujet tashqi voqealarga boy emas, asosan, ichki kechinmalar asosida qurilgan. Oddiy boshlang'ich holatdan g'ayritabiiylik – sirlar, qo'rquv, tushunmovchilik shaklida rivojlanib boradi. Kompozitsiya jihatdan: kirish – roviy mo'jazgina hovlidagi tasviri, rivojlanish – kampirning o'limi, suratlar qutisi, kulminatsiya – suratdagi ayolning chiqib kelishi, tugun – narratoring ichki qo'rquvlari va sirni hal qila olmasligi tasvirlari. Hikoyada tugunning yechimi berilmaydi, ochiq qoldiriladi, kitobxonning tasavvuriga havola qilinadi. Bu tuzilma asarning badiiy ta'sirini oshiradi. Kompozitsiyada xotira, retrospeksiya, ichki monolog yetakchi o'rin tutadi. Obrazlar tizimini tahliliga to'xtalamiz. Yuqorida keltirilganidek, Sh.Hamro yozayotgan asar qahramonlariga ism tanlash borasida qiynalishi haqidagi fikrlari keltirildi. Shunday asarlardan biri "Suratdagi ayol" hikoyasidir. Hikoyada birorta obrazga ism berilmagan.





Balki, shuning uchun ham hikoyada ramziylik kuchliroqdir. Obrazlar tizimi quyidagilardan iborat:

- 1) Rovi: “men” shaklida hikoya qiluvchi — ichki dunyosi ochiq, sirga qiziqadi, qoʻrquv hamda hayrat bilan yuzlashadi;
- 2) Kampir: sirli, oʻlimga tayyor boʻlgan, hovlida yolgʻiz yashagan — bu obraz oʻtmish bilan bogʻliq;
- 3) Suratdagi ayol: timsol-obraz sifatida markaziy oʻrin egallaydi — u suratda qolgan, lekin ruhiy ravishda hayotga taalluqligi seziladi. Uning nigohi, qoʻrqishi, suratdan chiqib kelishi — bularning barchasi uni oddiy obyektidan koʻproq mistik timsolga aylantiradi.
- 4) Erkak kishi (suratda): uning burni yoʻqligi va suratdagi joylashuvi — bu obrazga qoʻshimcha sir va ogʻirlik beradi.
- 5) Loʻli xotin: taqdir timsoli, ogohlantiruvchi, kelajakdan xabar beruvchi “ichki ovoz”.

Suratdagi erkak kishining burni yoʻqligi ramziy maʼno tashiydi. Baʼzi asarlarda burunning ramziy maʼnosi kibr va magʻrurlik boʻlsa, ushbu hikoyada burunning ramziy maʼnosi shaʼn va or-nomusdir. Hikoya estetik taʼsir va badiiy qiymatga ham ega. U oʻquvchida «surat ichidagi sir nima?» degan savol uygʻotadi, shuningdek, kimdir yashirin-ochiq tarzda bizga qarab turganligini his qilgandek holat yaratadi. Bu – badiiy matnning estetik jihatiga xizmat qiladi. Sir, qoʻrquv, ichki iztirob – ularning tili va atmosferasi asosida oʻquvchi ruhiyatini bosib oladi. Bundan tashqari, asar zamonaviy odamning yolgʻizligi, oʻtmishga bogʻlanishi va oʻzini borliqda topa olmasligi kabi mavzularni ham qoʻzgʻaydi. Hikoyada muallif pozitsiyasi yaqqol namoyon boʻlmaydi, yashirin shaklda keladi. Muallif qahramonni ochiq baholamaydi. U oʻquvchini qahramon ruhiy holatini his qilishga chorlaydi. Asarda hukm yoʻq, kuzatuvchi pozitsiya ustun. Kompozitsiya sodda, ammo ichki dinamika juda kuchli. Hikoya voqeaga emas, ruhiy kechinmalar asosiga qurilgan. Monologik nutq ustunlik qiladi. Hikoyada detal, yaʼni surat yetakchilik qiladi. Barcha sir, hikoyaning maʼno-mazmuni ana shu suratda yashiringan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, “Suratdagi ayol” hikoyasi sirli, mistik va psixologik qatlamlarga boy ijodiy mahsul. Unda kechinmalar, sirlar, oʻtmish va hozirgi hayotning toʻqnashuvi badiiy tarzda tasvirlangan. Muallif til va obrazlar orqali oddiy voqeani badiiy-ruhiy tahliliga aylantiradi. Ushbu asar – oʻquvchini faqat voqeaga emas, balki ichki dunyosiga ham qarashga undaydi. Shu oʻrinda Sh.Xolmirzayevning fikrlarini keltirish joiz: “Shodiqul Hamroning asarlarini hamma ham silliqqina qabul qila olmaydi. Biroq undagi voqealarga ishonadi, dahshatga tushadi: hikoyalardagi ruhiy tovlanishlar ogʻushida tentiraydi... va inson haqida nimanidir kashf etadi”.[6] Yozuvchining “Suratdagi ayol” hikoyasi ana shunday asarlardan biridir.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamroyev Sh. Qagnus qanotidagi umr. Qissa va hikoyalar – T.:”O‘zbekiston”, 2016.
2. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. O‘quv qo‘llanma – T.:”Akademnashr”, 2020.
3. oyina.uz
4. ziyo.uz
5. yoshlikjurnali.uz
6. qashqadaryogz.uz

